



УДК: 372.881.111.1:811.111 / 373.611

## YUQORI SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNI O'QITISH METODOLOGIYASI

**Maqsudov Ulug'bek Qurbanovich**

Pedagogika kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),  
dotsent, Farg'onan Davlat Universiteti, O'zbekiston

[umaqsudov1280@gmail.com](mailto:umaqsudov1280@gmail.com)

+998 90 303 19 34

<https://orcid.org/0000-0003-2661-4310>

**Akbarova Mohinur Alisher qizi**

Farg'onan davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi  
magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada ingliz tilidagi frazeologik birliklarning o'quv-tarbiyaviy jarayonidagi o'rni, ularning tasnifi hamda yuqori sinf o'quvchilariga samarali o'qitish metodlari tahlil qilindi. Ta'lilda frazeologizmlardan foydalanish o'quvchilarni tilni jonli va madaniy kontekstda o'rganishga rag'batlantiradi, lug'at boyligini va nutq madaniyatini oshiradi.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birliklar, ingliz tili, metodologiya, yuqori sinf, kontekst, kommunikativ yondashuv.

## МЕТОДОЛОГИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ФРАЗЕОЛОГИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ ДЛЯ СТАРШЕКЛАССНИКОВ

**Аннотация:** В статье анализируется роль фразеологических единиц английского языка в учебно-воспитательном процессе, их классификация и эффективные методы преподавания для старшеклассников. Применение фразеологизмов в обучении стимулирует учащихся изучать язык в живом культурном контексте, расширяет их словарный запас и развивает культуру речи

**Ключевые слова:** фразеологические единицы; английский язык; методология; старшеклассники; контекст; коммуникативный подход.

## METHODOLOGY OF TEACHING ENGLISH PHRASEOLOGICAL UNITS TO SENIOR SECONDARY STUDENTS

**Abstract.** This article analyzes the role of English phraseological units in the educational process, their classification, and effective teaching methods for senior secondary students. The use of phraseological units in instruction encourages learners to engage with the language in a vivid cultural context, enhances their lexical richness, and improves their communicative competence.



**Keywords:** phraseological units; English language; methodology; senior secondary students; context; communicative approach

## KIRISH

Bugungi kunda ingliz tilini o'qitish jarayonida o'quvchilarning nutqiy faoliyatini boyitish, ularning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun frazeologik birliklarni o'qitish zarurati tobora ortib bormoqda. "Ta'lism to'g'risidagi qonun"da, "...o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, shu jumladan, frazeologik birliklarni tushunish va samarali qo'llashga yo'naltirilgan ta'lism tizimini yaratishga qaratilgan. O'quvchilarga frazeologik birliklarni o'rgatish, ular orqali tilni yaxshiroq tushunish va samarali muloqot qilish imkonini beradi."

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, yuqori sinf o'quvchilari uchun frazeologik birliklarni o'qitish kommunikativ yondashuv, kontekstda o'rganish va amaliy mashg'ulotlar orqali samaraliroq bo'ladi. Bugungi globallashuv jarayonlari va xalqaro muloqot zarurati frazeologik birliklarni o'zlashtirishni til o'rganish jarayonining ajralmas qismiga aylantirgan bo'lib, bu ko'nikma o'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizdagi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, yuqori sinf o'quvchilari uchun frazeologik birliklarni o'qitish ularning nutqiy malakasini oshirish, real hayotda ingliz tilida erkin muloqot qilish qobiliyatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Ta'limga fan bo'yicha milliy dasturida ham bu masalaga e'tibor qaratilib, kommunikativ yondashuv va interaktiv usullar asosida frazeologik birliklarni o'rgatish zaruriyati belgilamoqda. Shuningdek, respublikada til o'rganish jarayonida autentik materiallardan foydalanish va amaliy mashg'ulotlarga e'tibor qaratish talabi kuchayib bormoqda.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha G.X.Bakieva, L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, M.T. Irisqulov, T.K.Sattarov, F.M.Rashidova, S.Nazarova, B.G.Kulmatov, K.J.Riskulova, X.Mamatqulov, I.M.To'xtasinov, M.A.Nazarova, B.R.Samatova, M.R.Fayzieva singari olimlar salmoqli tadqiqotlar olib borgan.



Mustaqil davlatlar hamdo'stligi doirasidagi mamlakatlar olimlari S.M.Abramov, G.M.Burdenyuk, Ya.G.Gendler, A.A.Drobishevskiy, L.G.Juk, E.V.Zaxarova, E.V.Zmievskaya, I.A.Ivanova, Yu.E.Kalugin, V.A.Korvyakov, E.V.Korolkova, N.A.Proxorova, E.A.Saribekova, E.N.Trushenko, M.A.Fedorova, O.N.Shevoleva, E.B.Abakumova, A.Ya.Ayzenberg, N.G.Aldakaeva, A.V.Baynazarova, I.K.Proskurina, N.S.Badmaeva, M.B.Balikaeva, V.P.Bespalko, Bim – Bad B.M., V.B.Bondarevskiy, E.N.Bryazgunova va boshqalar tomonidan talabalarda mustaqil ta'lim ko'nikmalarini KT vositasida shakllantirish va rivojlantirish masalalari tadqiq qilingan.

Mustaqil ta'limni tashkil qilish, auditoriyadan tashqari darslarni tashkil qilish va ularning talabalar tomonidan fanni o'zlashtirishdagi ahamiyati masalalari xorij olimlari Belz J.A., Thorne S.L., Bloom B. S., Boyd P., White E., Szplit A., Bullock, S.M., Christou T., Doff Adrian., Zaleski M., Cotton D., Falvey D., Kent S., Loughran J., Little D., Schuck S., Russell T., Munby H., Russell T., McClelland D.C., Humphreys P., Greenan K., Mcilveen H., Huxtable M., Whitehead J., Yerkes R. M., Dodson J.D., Chivers L., Collins C., Lee L., Solly, D., Dickerson, C., Jarvis, J., Levy R., Erickson L. B., Young J. R., Pinnegar S., Wainryb Ruth, White R.W., Watson J. tadqiqotlarida yoritilgan.

Tadqiqot quyidagi metodik yondashuvlarga asoslangan:

1.Tahliliy (analitik) metod. Frazeologik birliklarning lug'aviy va semantik xususiyatlari tahlil qilinib, ularning o'quvchilarining yosh xususiyatlari va ingliz tilini o'zlashtirish darajasiga qanday mos kelishi o'rganildi.

2.Eksperimental metod. Tajriba-sinov darslari orqali frazeologik birliklarni o'rgatishga qaratilgan mashg'ulotlar o'tkazildi. Eksperimental guruhg'a frazeologizmlarni kontekstda, o'yinlar, roliklar va vizual materiallar orqali o'rgatish usullari qo'llandi, nazorat guruhi esa an'anaviy metodlar asosida dars oldi.

3.Tavsify metod. Dars jarayonida o'quvchilarining faolligi, so'z boyligi va nutq madaniyati darajasi yozma va og'zaki shaklda kuzatilib, bu o'zgarishlar tavsify tarzda bayon qilindi.

4.So'rovnama va suhbat usuli. O'quvchilarning frazeologik birliklarni o'zlashtirishdagi qiyinchiliklari, ularni eslab qolish va qo'llashdagi fikrlari aniqlanishi uchun maxsus so'rovnomalar o'tkazildi.

5.Interfaol metodlar asosida darslar tashkil etish. "Role-play", "Guess the idiom", "Match the idiom with the meaning" kabi interfaol topshiriqlardan foydalanildi. Bu metodlar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, frazeologik birliklarning tez va samarali o'zlashtirilishiga yordam berdi.

### NATIJALAR VA MUHOOKAMA

Tadqiqot Quvasoy shahar 3-sonli umumiylor ta'limga muktabida o'tkazildi, tajribada xorijiy til o'qituvchilarining metodik uyushmasi juda ko'p sonli va faol bo'lib, o'qituvchilar pedagogik jarayon samaradorligini oshirish, yangi metodlarni joriy etish bo'yicha hisobotlar tayyorlashadi. Ular kasbiy adabiyot yangiliklarini muhokama qilib, o'qituvchilar va talabalar uchun bu adabiyotlardan qanday foydalanish mumkinligini tahlil qiladilar. Shuningdek, birlashtirilgan va an'anaviy bo'limgan darslar mavzulari muhokama qilinadi, bu darslar nafaqat ta'limga, balki o'quvchining har tomonlama rivojlanishiga qaratilgan tarbiyaviy maqsadlarni ham amalga oshiradi.

Maktabda xorijiy til darslari uchun estetik jihatdan bezatilgan xonalar mavjud bo'lib, ular turli jadvallar, diagrammalar va rasmlar bilan jihozlangan. Biroq, maktabda ta'limga jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun texnik vositalar etishmaydi.

Ingliz tili o'quv materiallarini "O'quv-metodik kompleks" tahlil qilish natijasida, o'rta maktab bosqichi uchun mo'ljallangan darsliklarda frazeologik birliklarni og'zaki nutqda qo'llash masalalariga oid ma'lumotlar yetishmaydi, bu esa eksperiment o'tkazishda ma'lum qiyinchiliklar yaratadi.

Aniqlash eksperimentining maqsadi o'quvchilarning frazeologik birliklar haqida qancha bilimga ega ekanligini aniqlash va ular muloqot jarayonida frazeologik birliklarni ishlataladimiyo'qmi, shuni bilib olishdir.

Tajriba-sinov ishlarini o'tkazish uchun 9-sinfning to'rt guruhi tanlandi va ular bilan suhbat o'tkazildi. Suhbat davomida o'quvchilar ingliz tilidagi frazeologik birliklar va frazeologiya haqida hech qanday ma'lumotga ega emasliklari aniqlangan. Sinfdagagi muloqot jarayonini kuzatish natijasida, o'quvchilar nutqda frazeologik

birliklarni ishlatmasliklari ma'lum bo'ldi. Aniqlash eksperimentining asosiy bosqichi o'quvchilarni ushbu masala bo'yicha test sinovlaridan o'tkazish bo'ldi. Test ikkita topshiriqdan iborat edi (Ingliz tilidan o'zbek tiliga tarjima qilish va to'g'ri javobni tanlash).

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, frazeologik birliklarni o'rgatish jarayonida o'quvchilarni faollashtirish uchun interaktiv usullar, rolli o'yinlar va real hayotdagi vaziyatlarni simulyatsiya qilish kabi metodlar juda samarali bo'lishi mumkin. Bunday yondashuvlar o'quvchilarga tilni nafaqat nazariy, balki amaliy ravishda o'zlashtirish imkoniyatini yaratadi, bu esa ularning muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, o'quvchilarning frazeologik birliklarni o'rganish jarayonida yuzaga kelgan qiyinchiliklar, ularning tilni o'rganishga bo'lgan yondashuvlarini yanada chuqurlashtirish zaruriyatini ko'rsatdi. Shu sababli, o'quvchilarga frazeologik birliklarni o'rgatish jarayonida ular uchun qiziqarli va interaktiv mashqlarni ishlab chiqish, frazeologik birliklar tarixini va ularning ishlatilishini tushuntirish orqali ularning tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshirish kerak.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Ta'lif va Fan Vazirligi. (2021). Frazeologik birlıklar va ularning ta'lifda qo'llanilishi.
2. Matyoqubov, M. (2019). O'zbek tilining frazeologik lug'ati. Toshkent: O'zbek Milliy Enstituti nashriyoti.
3. Rahmonova, D. (2020). Ta'lif jarayonida tilning boyligini o'rgatish usullari. O'qituvchi nashriyoti.
4. Mirzaeva, Sh. (2018). Frazeologik birlıklarning lingvistik va pedagogik ahamiyati. Pedagogika va Innovatsiyalar.
5. Maksudov U.K., Akbarova M.A. Technologies Of Teaching Phraseological Units To High School Students In English Courses (25-oktabr 2024) 220-224.
6. Темиров, Н.С., У.К.Максудов. "Социальные и воспитательные факторы системы формирования национальных ценностей в вузе." (2023): 19-19.
7. Maqsudov, U. Q., & Yuldasheva, M. (2024). O'QISH SAVODXONLIGINING ASOSIY TUSHUNCHALARI VA BOLALAR RIVOJLANISHIDAGI ROLI. // Farg'onadavlat universiteti, (3), 183-183.
8. Qurbonovich, M. U. (2024). MODERNIZATSIYALASH SHAROITLARI DA TALABALARNING KASBIY DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI. // Farg'onadavlat universiteti, (3), 39-39.



9. Yuldasheva M., Maqsudov U. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI O'QISH SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA O'YIN VA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH // Farg'onan davlat universiteti. - 2024. - №. 2. - C. 12-12.
10. Akramjon o'g'li A. R., Qurbanovich M. U. THE SPIRITUAL-MORAL EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF THE VIEWS ON SCIENCE AND PATIENCE IN THE TURKISH GULISTAN OR ETHICS OF ABDULLA AVLONI // International Multidisciplinary Journal for Research & Development. - 2024. - T. 11. - №. 01.
11. Максудов, У. К., & Шатунова, О. В. (2024). ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ ИСПЕЦИАЛИСТОВ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ. Science and innovation, 3(Special Issue 26), 304-309.